

**FALSAFA FANLARNING JAMIYATI HAYOTI VA YOSHLAR
TARBIYASIDAGI O'RNI****Farhodova Oynura Oybek qizi***Alfraganus Universiteti 'milliy g'oya ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi'' yo'nalishi 2-kurs talabasi**Ilmiy rahbar: Djurayev G'olib Abdurasulovich**Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

Annatatsiya: Ushbu maqola falsafaning jamiyat hayoti va yoshlar tarbiyasidagi muhim rolini o'rganadi. Uning asosiy maqsadi falsafa fanining insoniyatning asosiy savollari, hayot ma'nosi, axloq, adolat, bilim va haqiqat kabi tushunchalarni chuqur tahlil qilish orqali jamiyatning rivojlanishiga va yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga qanday hissa qo'shishini ko'rsatishdir. Falsafaning jamiyat va yoshlar tarbiyasiga ta'sirini ko'rsatuvchi amaliy misol va xulosalar keltiriladi. Uning maqsadi o'quvchilarni falsafaning ahamiyati va jamiyat hayotidagi roli haqida xabardor qilish, yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda falsafaning o'rni to'g'risida fikr yuritishga undashdir.

Kalit sozlar: falsafa, jamiyat, yoshlar, tarbiya, axloq, tadqiqotlar, jamiyat hayoti, rivojlanish, ma'naviy qadriyatlar

Kirish. «Falsafa» tushunchasining kelib chiqishi. Har qanday noma'lum so'z mazmunini uning etimologiyasidan, ya'ni u qachon, qanday va nima uchun yuzaga kelganini aniqlashdan boshlash o'rinli bo'ladi. «Falsafa» tushunchasi yunoncha phileo – sevaman va sophia – donolik so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, mazkur atamaning dastlabki ma'nosini donolikka muhabbat deb talqin qilish mumkin. Falsafa so'zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an'analar orqali) avloddan avlodga o'tuvchi bilim bilan inson o'z aqliga tayanib, mushohada yuritish va tanqidiy fikrlash yo'li orqali olishi mumkin bo'lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Shuni ta'kidlash lozimki, Pifagor ham, qadimgi davrning boshqa faylasuflari ham dastlab «falsafa» tushunchasiga uning keyinchalik paydo bo'lgan va mohiyat e'tibori bilan, falsafani «barcha fanlar podshosi» darajasiga ko'targan ma'nosidan boshqacharoq ma'no yuklaganlar. Ammo ilk faylasuflar o'zlarini donishmand deb hisoblamaganlar va donolikka da'vo ham qilmaganlar, zero, o'sha davrda keng tarqalgan tasavvurga ko'ra, haqiqiy donishmandlik ajdodlardan meros qolgan, asrdan asrga o'tib kelayotgan afsonalar, din va rivoyatlarda mujassamlashgan. Donishmandlar deb, asrlar sinovidan, eng so'nggi haqiqat manbai sifatidagi bilimlarga ega bo'lgan

bashoratgo'ylar, kohinlar va oqsoqollar e'tirof etilgan. Ularning so'zlari birdan-bir to'g'ri deb qabul qilingan. Faylasuf esa, qadimgilar fikriga ko'ra donishmandlik muxlisi bo'lishi, e'tiqod sifatida qabul qilingan tayyor haqiqatlarga emas, balki o'z aqliga tayanib, ijodiy yo'l bilan, shuningdek boshqa faylasuflar tomonidan olingan bilimlar va tajribadan foydalangan holda maqsadga intilishi lozim bo'lgan. Biroq, insonning dunyo va o'ziga bunday munosabati darhol yuzaga kelgani yo'q. Insonning tabiatga qarshilik ko'rsatish, ishlab chiqarish vositalarini yaratish va ko'paytirish qobiliyatlari rivojlangunga va o'sgunga, buning natijasida yetarli tajriba va bilimlar to'plangunga, odamlar aqli ko'p sonli savollarga javob izlash uchun yetarli darajada yuksalgunga qadar insoniyat uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Shu bois falsafaning mohiyatini, shuningdek uning paydo bo'lish sabablari va sharoitlarini tushunish uchun gapni inson dunyoqarashidan boshlash lozim. Nima uchun? Shuning uchunki, falsafa dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllaridan biri hisoblanadi. Falsafa haqida gapirish – inson dunyoqarashi, uning oqilona fikrlash qobiliyati haqida, binobarin, uning mohiyati va Yerdagi hayot paydo bo'lish tarixi haqida gapirish demakdir. Bu yerda biz hali kam o'rganilgan murakkab muammolarga duch kelamiz, zero insonning kelib chiqishi odamlar doim javobini topishga harakat qilgan buyuk jumboqlardan biri hisoblanadi. Ammo bilimning bu sohasida yechilmagan muammolar bugungi kunda ham bisyor. Xususan, inson nima uchun, qayerdan, qaysi sabablarga ko'ra paydo bo'lgan, degan savolga aniq, umumiy e'tirof etilgan javob hanuzgacha mavjud emas. Shuningdek, aql faqat insonga xosmi yoki uning inson borligida mavjudligi ob'yektiv borliqning bir parchasi, ayrim hodisasimi?, degan savol ham hali o'z javobini topganicha yo'q.

NATIJA VA MUHOKAMA

Falsafa — bu borliq, inson, tafakkur, qadriyatlar va jamiyat taraqqiyoti haqidagi umumiy qonuniyatlarni o'rganuvchi fan. U jamiyat hayotida quyidagi vazifalarni bajaradi: Dunyoqarashni shakllantirish Tahlil va tanqidiy fikrlash. Qonuniyatlarni tushuntirish Qadriyatlar tizimini belgilash kabilarni oz ichiga oladi . Yoshlarning orasida falsafaning ornini kengroq yoritish.

1. Dunyoqarashni shakllantirish

Falsafa yoshlar ongida mustahkam va barqaror dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Yoshlar hayotga, jamiyatga, atrof-muhitga, inson va tabiatga falsafiy nigoh bilan qarashni o'rganadilar. Bu esa ularni hayotda yo'qotilmaslikka, maqsad sari intilishga undaydi.

2. Axloqiy qadriyatlar va ma'naviyat asoslarini singdirish

Falsafa orqali yoshlar ezgulik, adolat, halollik, vijdon, burch kabi axloqiy qadriyatlar mohiyatini tushunadi. Bu qadriyatlar ularning shaxs sifatida shakllanishi va to'g'ri yo'l tanlashida asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

3. Tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish

Bugungi globallashuv davrida yoshlar ko'plab ma'lumotlar oqimi ichida yashaydi. Falsafa ularga bu ma'lumotlarni tanqidiy baholash, asosli va mustaqil qarorlar qabul qilish, turli g'oyalarni solishtirish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishda yordam beradi.

4. Hayotiy muammolarni hal qilish ko'nikmasini rivojlantirish

Falsafa yoshlarni hayotning murakkab va ziddiyatli masalalariga yechim topishga o'rgatadi. Ular turli hayotiy vaziyatlarda muammolarga bir yoqlama emas, balki chuqur va har tomonlama yondashish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

5. Tolerantlik va muloqot madaniyatini oshirish

Falsafa boshqa qarashlarga hurmat bilan qarash, fikrlar xilma-xilligini qabul qilish, bag'rikenglik, sabr-toqat kabi xususiyatlarni rivojlantiradi. Bu yoshlarni jamiyatda turli madaniyat va qarash vakillari bilan samarali muloqot qilishga tayyorlaydi.

6. Jamiyatdagi faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish

Falsafa yoshlarni jamiyatdagi o'z o'rnini tushunishga, faol va ongli fuqaro bo'lib yetishishga undaydi. Ular o'z huquq va burchlarini anglab, jamiyat taraqqiyotida o'z hissasini qo'shishga harakat qiladilar.

7. Ijodiy va innovatsion fikrlashni rivojlantirish

Yoshlarni yangicha qarash, kreativ fikr yuritish va muammolarga noodatiy yondashishga undaydi. Bu esa zamonaviy jamiyat talablariga mos ijodkor avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Falsafa jamiyatning ma'naviy, madaniy va intellektual taraqqiyotida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. U jamiyat a'zolarining dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy ongini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Falsafa orqali inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar tahlil qilinadi, mavjud muammolarning tub sabablari aniqlanadi va ularni bartaraf etishning ratsional yo'llari taklif etiladi.

Falsafaning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, avvalo, uning nazariy-analitik funksiyasi bilan bog'liqdir. U ijtimoiy hodisalarni chuqur tahlil qilish, ijtimoiy institutlarning faoliyatini baholash, ularning rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda asosiy vosita sifatida qaraladi. Ayniqsa, siyosat falsafasi, axloq falsafasi, huquq falsafasi va ijtimoiy falsafa yo'nalishlari jamiyatning ideologik va huquqiy asoslarini izohlashda beqiyos ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, falsafa fanining tarbiyaviy va integrativ funksiyalari jamiyatdagi barqarorlik va birlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Falsafa turli ijtimoiy qatlamlar, madaniyatlar va qarashlar o'rtasida muloqot maydonini yaratib, tolerantlik va bag'rikenglikni rivojlantiradi. Bu esa ijtimoiy totuvlik, fuqarolik ongini yuksaltirish va milliy birdamlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Inson tafakkuri va dunyoqarashining shakllanishida muhim epistemologik, ontologik va aksiologik

asoslarni taqdim etuvchi fundamental fan hisoblanadi. Ushbu fan orqali yosh avlod nafaqat bilimga ega bo'ladi, balki mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish bilan birga, ma'naviy-axloqiy kamolotiga ham xizmat qiladi. Falsafa fanining asosiy tarbiyaviy funksiyalaridan biri – shaxsni axloqiy qadriyatlarga asoslangan holda tarbiyalashdir. Xususan, adolat, haqiqat, erkinlik, burch, insonparvarlik kabi umuminsoniy qadriyatlar falsafiy tafakkur orqali talqin qilinadi va yosh ongiga singdiriladi. Bu jarayon yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat hissi, tanqidiy tafakkur, tolerantlik va dialogga ochiqlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Mashhur faylasuf K. Jaspers (Karl Jaspers) ta'kidlaganidek, falsafa jamiyatga "yo'naltiruvchi tafakkur", ya'ni voqealarning mohiyatini tushunishga undovchi tafakkur shaklini beradi. Bu esa ijtimoiy tizimlarning rivojlanishi, madaniy muvozanat va axloqiy normalarning barqarorligiga xizmat qiladi. Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning falsafiy qonuniyatlarini o'rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik hamkorlik va uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Milliy tarbiya haqida gap ketganda beixtiyor taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari inson e'tiborini tortadi. Ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida ma'naviy tanazzulning asosiy omillari bo'yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma'lutolar ilmiy asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishgasoladigan bir qaraganda e'tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya'ni oilada farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik, uning psixologik qonuniyatlarini bilmaslik illati millatning ma'naviy tannazulining asosi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi. Falsafa o'z funksiyalari (dunyoqarash, tanqidiy, metodologik, aksiologik, bashoratlash, sintetik)ni amalga oshirishda jamiyatda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi

Ta'kidlash joizki, yoshlar axloqiy tarbiyasida o'rta asr Sharq mutafakkirlari qarashlarining roli beqiyosdir. XV asrda Movarounnahr, Eron va Xurosonda ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy fikr taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shgan olim Jaloliddin Davoniydir. Bizga ma'lumki, Sharq Uyg'onish davrida, Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat yuksalgan davr edi. Davoniy ham ushbu davrning ilm-fan va axloqiga ulkan xissa qo'shgan qomusiy olimdir. U Foniylar tahallusi bilan ijod qilgan. Uning she'rlari Eron va Iroqda chop etilgan. Davoniyning eng mashhur asari bu "Axloqi Jaloliy" deb nomlanadi. Mutafakkir o'z asarida yosh avlodni tarbiyalash va uni yaxshi kasb hunar va malakalarni egallashi to'g'risida so'z yuritarkan, avvalo inson jamiyatda, atrofdagilar bilan o'zaro munosabat natijasida kamol topishini

uqtiradi. Husayn Voiz Koshifiy o'zining "Futuvvatnomai Sultoniyy yohud javonmardlik tariqati" asarida futuvvat ilmining mohiyati, uning mavzui, kelib chiqishi, piru muridlik, shayxlik va shogirdlik munosabatlari, so'fiylar va futuvvat axliga qo'yiladigan talablar, firqa shartlari, ular kiyadigan liboslari, bosh kiyimlar xulq-odobi haqidagi fikrlar batafsil bayon qilinadi. Koshifiy futuvvat ilmi to'g'risida so'z yuritar ekan, tasavvuf va tavhid ilmining bir bo'lagi sifatida ta'riflaydi va uning asosiy mavzusi inson ruhini tarbiyalash deb biladi. "Zero insonning ruhini fazilatli qilib yetishtirish mumkin", deydi mutafakkir

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, komil inson ta'limoti xalqning orzuistaklari, fikr-o'ylarini aks ettirgan bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad xalqni komil inson qilib tarbiyalash, jamiyatga foyda keltirish, turli aqida va toifaga mansub kishilarning ongi-shuuriga ilohiy xislatlar, iymone'tiqod, hamida axloq, go'zal fazilat va xulq-odob qoidalarini singdirish bo'lgan. Mutasavviflar tomonidan komil insonga xos xususiyatlarning ochib berilishi keyingi allomalar, faylasuflarning asarlari, qarash va g'oyalarining ma'naviy asosi bo'ldi. Umuman olganda, falsafa jamiyat va yoshlar hayotida axloqiy-me'yoriy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-nazariy va metodologik asos sifatida xizmat qiladi. U yoshlarga o'z o'rini anglashga, jamiyatda faol va ongli fuqaro bo'lib yetishishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
2. Qambarov A.A. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonida ilmiy qadriyatlarning roli: Falsafa fan. nomzodi... Avtoref/ A. A. Qambarov; Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy un-ti.-Toshkent, 2006.- 27 b
3. Aliqulov X. Mutafakkirlar axloq va adolat xaqida.T. Adolat. 1995–y.30–b
4. www.edu.uz